


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha, 2021- yilning yanvar - fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 441,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 100,9 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 535,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 136,6 %ni), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 906,5 mlrd. so'mni (94,1 %ni), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 242,4 mlrd. so'mni (103,5 %ni) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mlrd. so'm



HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT


Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 441,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 100,9 %ni tashkil etdi.



Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasi 78,1 % va yirik korxonalar hissasi 21,9 %ga to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush Samarqand shahrida bo'lib jamiga nisbatan 41,7 %ni yoki 1019,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng past ulush Qo'shrabot tumanida 1,8 % yoki 43,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda. Mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, 1 906,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,9 %ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 78,1 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kattaqo'rg'on shahrida (99,9 %) va Jomboy (98,8 %), Nurobod (98,5 %), Kattaqo'rg'on (98,5 %), Ishtixon (98,6 %), Narpay (98,0 %), Qo'shrabot (98,3 %) va Payariq (98,5 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yil yanvar-fevral

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning ayrim hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatildi, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (107,3 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2 441,6	100,9	535,0	136,6	1 906,5	94,1
Samarqand shahri	1019,2	107,3	504,5	138,8	514,7	87,7
Kattaqo'rg'on shahri	170,3	98,4	0,2	86,6	170,1	98,4
tumanlar:						
Oqdaryo	59,6	97,9	1,4	122,4	58,1	97,4
Bulung'ur	112,9	98,1	3,2	3,3 m.	109,8	96,2
Jomboy	87,3	96,8	1,1	115,6	86,2	96,6
Ishtixon	94,4	95,5	1,3	46,5	93,1	97,0
Kattaqo'rg'on	93,4	96,1	1,4	81,4	92,1	96,4
Qo'shrabot	43,2	97,3	0,7	2,2 m.	42,4	96,7
Narpay	62,8	96,9	1,2	109,5	61,6	96,6
Payariq	99,8	94,8	1,5	96,4	98,2	94,8
Pastdarg'om	127,1	95,6	5,4	79,5	121,7	96,5
Paxtachi	45,2	96,0	1,3	129,2	43,9	95,3
Samarqand	77,6	95,3	1,5	53,2	76,1	96,8
Nurobod	51,0	97,3	0,7	124,3	50,3	96,9
Urgut	232,1	97,9	6,6	130,6	225,5	97,1
Toyloq	65,7	96,9	3,0	3,0 m.	62,7	93,9

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 36,6 %ga o'sdi va 535,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 21,9 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 906,5 mlrd. so'mni va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 94,1 %ni tashkil etdi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 78,1 %ni tashkil etdi.




**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Jomboy (98,8 %), Nurobod (98,5 %), Kattaqo'rg'on (98,5 %), Ishtixon (98,6 %), Qo'shrabot (98,3 %) va Payariq (98,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 21,9 %ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (49,5 %), Bulung'ur (2,8 %), Toyloq (4,5 %) va Pastdarg'om (4,3 %) tumanlarida kuzatildi.



SAMARQAND VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


2021- yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 624,1 ming so'm (2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 99,0 %ni tashkil etdi) va Payariq (92,8 %), Paxtachi (94,5 %), Ishtixon (93,6 %), Samarqand (93,4 %), Jomboy (94,5 %) va Kattaqo'rg'on (94,4 %), Pastdarg'om (93,7 %) tumanida aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichida kamayish sur'ati kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Samarqand shahri (1 856,0 ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (1 890,7 ming so'm) va Bulung'ur tumani (601,1 ming so'm), Jomboy tumani (502,1 ming so'm), Urgut tumani (452,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.




	Hajm, Ming so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, %da
Samarqand viloyati	624,1	99,0
Samarqand shahri	1 856,0	105,9
Kattaqo'rg'on shahri tumanlar:	1 890,7	96,9
Oqdaryo	371,9	96,0
Bulung'ur	601,1	96,4
Jomboy	502,1	94,5
Ishtixon	369,2	93,6
Kattaqo'rg'on	340,3	94,4
Qo'shrabot	326,4	95,4
Narpay	293,6	95,3
Payariq	395,7	92,8
Pastdarg'om	356,4	93,7
Paxtachi	311,9	94,5
Samarqand	305,5	93,4
Nurobod	337,2	95,5
Urgut	452,3	95,5
Toyloq	323,9	94,7

Asosiy tarkib, foizda




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 242,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 103,5 %ni tashkil qildi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 63,3 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 62,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 179,1 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 134,8 %)ni tashkil etdi.

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 63,3 mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 179,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	242,4	103,5	63,3	62,5	179,1	134,8
Samarqand shahri	8,4	102,3	7,7	2,2 m.	0,7	14,0
Kattaqo'rg'on shahri	58,9	112,0	5,6	24,6	53,3	178,1
tumanlar:						
Oqdaryo	16,5	103,1	2,0	28,7	14,5	159,5
Bulung'ur	18,7	101,7	6,8	85,2	11,9	114,2
Jomboy	22,4	106,9	6,1	67,8	16,3	136,7
Ishtixon	12,7	99,0	2,6	46,9	10,1	134,9
Kattaqo'rg'on	17,9	99,3	6,6	84,4	11,3	110,6
Qo'shrabot	7,6	111,3	2,3	77,1	5,3	139,7
Narpay	6,0	101,8	5,4	2,1 m.	0,6	16,0
Payariq	23,3	97,4	8,5	82,6	14,8	112,3
Pastdarg'om	9,3	103,5	1,2	30,3	8,1	159,6
Paxtachi	8,2	99,1	2,0	55,4	6,2	135,3
Samarqand	7,3	92,4	0,2	5,0	7,1	154,7
Nurobod	9,1	98,1	3,3	81,0	5,8	113,4
Urgut	8,3	102,8	2,3	67,2	6,0	126,8
Toyloq	7,8	97,7	0,7	20,6	7,1	156,7

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



0,5
mlrd. so'm

Tuzlamalar



18,1
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



1,7
mlrd. so'm

**Quriltgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

8,3
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



3,1
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

8,3
mlrd. so'm



Tuxum

13,2
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

1,4
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

0,1
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

1,0 mlrd.
so'm



Ziravorlar

7,6
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 63,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (18,1 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, viloyat bo'yicha faoliyat ko'rsatib kelayotgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 179,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 130,9 mlrd. so'mni, qo'y va echkilar 23,8 mlrd. so'mni, otlar 23,2 mlrd. so'mni, parrandalar 1,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**


2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3 %ni tashkil etib, 57,3 mlrd. so‘m yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 107,6 %ni tashkil etdi. Bunda jami savdo aylanmasining 80,3 %lik ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish (o‘zgarish) sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar –fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	57,3	107,6	11,3	2,3 m.	46,0	95,1
Samarqand shahri	39,9	111,4	10,4	2,2 m.	29,5	94,8
Kattaqo‘rg‘on shahri	1,6	96,5	0,0	0,0	1,6	96,5
tumanlar:						
Oqdaryo	0,2	94,5	0,0	0,0	0,2	94,5
Bulung‘ur	1,6	157,4	0,6	0,0	1,0	96,2
Jomboy	1,0	97,5	0,0	0,0	1,0	97,5
Ishtixon	0,4	96,6	0,0	0,0	0,4	96,6
Kattaqo‘rg‘on	0,6	96,4	0,0	0,0	0,6	96,4
Qo‘shrabot	0,4	96,9	0,0	0,0	0,4	96,9
Narpay	0,6	93,3	0,0	0,0	0,6	94,9
Payariq	0,7	94,9	0,0	0,0	0,7	94,9
Pastdarg‘om	3,9	93,8	0,0	0,0	3,9	94,9
Paxtachi	0,5	151,9	0,2	0,0	0,3	94,5
Samarqand	2,5	94,9	0,1	82,0	2,5	95,4
Nurobod	0,3	93,8	0,0	0,0	0,3	93,8
Urgut	1,2	96,5	0,03	138,7	1,1	95,7
Toyloq	1,9	94,6	0,0	0,0	1,9	94,6

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2020- yil yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi 0,38 % birchil.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi 57,3 mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 107,6 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha 57,1 mlrd. so'm (99,62 %) nodavlat mulk, 0,2 mlrd. so'm (0,38 %), davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Samarqand shahri (0,38 %)ga to'g'ri kelmoqda.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	57 325,8	100,0	57109,2	99,62	216,6	0,38
Samarqand shahri	39 884,8	69,6	39668,2	99,62	216,6	0,38
Kattaqo'rg'on shahri	1 616,1	2,8	1 616,1	100,0	-	-
tumanlar:						
Oqdaryo	210,3	0,4	210,3	100,0	-	-
Bulung'ur	1 621,7	2,8	1 621,7	100,0	-	-
Jomboy	1 031,8	1,8	1 031,8	100,0	-	-
Ishtixon	379,3	0,7	379,3	100,0	-	-
Kattaqo'rg'on	605,3	1,1	605,3	100,0	-	-
Qo'shrabot	436,1	0,7	436,1	100,0	-	-
Narpay	572,5	1,0	572,5	100,0	-	-
Payariq	670,3	1,2	670,3	100,0	-	-
Pastdarg'om	3 895,2	6,8	3 895,2	100,0	-	-
Paxtachi	464,1	0,8	464,1	100,0	-	-
Samarqand	2 514,0	4,4	2 514,0	100,0	-	-
Nurobod	301,7	0,5	301,7	100,0	-	-
Urgut	1 163,8	2,0	1 163,8	100,0	-	-
Toyloq	1 958,8	3,4	1 958,8	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 806,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 97,3 %ni tashkil etdi. Jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 278,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 117,6 %ni), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi 528,1 mlrd. so'mni (89,2 %ni), shundan mikrofimlar savdo tovar aylanmasi 311,4 mlrd. so'mni (89,3 %ni) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi 216,7 mlrd. so'mni (89,1 %ni) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O‘SISH SUR‘ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘atlari yirik korxonalar bo‘yicha Samarqand shahrida (122,6 %) va Bulung‘ur (1005,7 marta), Paxtachi (48,0 marta), Tayloq (2,7 marta) tumanlarida kuzatildi.



Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori ulush Samarqand shahrida (55,7 %) va Toyloq (8,9 %), Samarqand (5,1 %) Kattaqo‘rg‘on (5,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘zgarish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m	2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	806,5	97,3	278,364	117,6	528,1	89,2
Samarqand shahri	449,2	99,2	216,446	122,6	232,8	84,3
Kattaqo‘rg‘on shahri	11,9	93,4	0,096	181,3	11,8	93,1
tumanlar:						
Oqdaryo	16,2	77,0	0,137	3,3	16,1	95,4
Bulung‘ur	40,0	2,8 m.	28,510	1005,7 m.	11,5	79,4
Jomboy	11,3	94,9	0,005	7,8	11,3	95,3
Ishtixon	10,0	89,3	0,234	2,7 m.	9,8	87,9
Kattaqo‘rg‘on	41,0	96,2	0,136	79,5	40,9	96,3
Qo‘shrabot	1,3	89,4	0,026	41,4	1,2	91,6
Narpay	7,7	86,1	1,780	64,5	6,0	95,6
Payariq	22,0	89,7	5,292	85,3	16,7	91,2
Pastdarg‘om	39,2	60,4	21,675	46,9	17,5	93,7
Paxtachi	9,7	143,7	3,676	48,0 m.	6,0	90,0
Samarqand	41,5	95,0	0,032	21,1	41,4	95,3
Nurobod	4,5	96,2	0,037	139,0	4,4	95,9
Urgut	29,4	94,2	0,249	2,7 m.	29,1	93,6
Toyloq	71,6	94,7	0,033	2,7 m.	71,6	94,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2021- yil yanvar-fevral oylari yakuniga ko'ra, 528,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 89,2 %ni, jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 65,5 %ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda yuqori ulush Samarqand (99,9 %), Urgut (99,2 %), Tayloq (100,0 %), Oqdaryo (99,2 %), Kattaqo'rg'on (99,7 %), Jomboy (100,0 %) tumanlarida va Kattaqo'rg'on shahrida (99,2 %) bo'lgan. Eng past ulush esa Bulungur (28,8 %) va Pastdarg'om (44,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.